

SA'DULLA SIYOYEVNING "AHMAD YASSAVIY" ROMANIDA YO'L
MOTIVINING FOLKLORGA XOS BADIY TALQINI

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori(PhD), dotsent
Tosheva Nilufar Shirinboyevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romanida yo'l motivining badiiy-funksional xususiyatlari folklor kontekstida tahlil qilinadi. Yo'l motivining tasavvufiy, semantik va strukturaviy qatlamlari ochib berilib, ularning xalq og'zaki ijodi, xususan ertaklar, rivoyatlar va dostonlardagi yo'l obrazlari bilan o'zaro aloqasi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda yo'l motivining qahramon kamoloti, sinovlar tizimi va ma'naviy yuksalish modeli sifatidagi ahamiyati asoslanadi. **Kalit so'zlar:** yo'l motivi, folklorizm, tasavvuf, Ahmad Yassaviy, safar, sinov, qahramon evolyutsiyasi, ramziy ma'no, ertak, doston.

Аннотация. В данной статье анализируется мотив пути в романе Са'дуллы Сиёева «Ахмад Яссави» в контексте фольклорной традиции. Раскрываются его семантические, структурные и суфийские аспекты, а также их связь с мотивами пути в народных сказках, легендах и эпосе. Обосновывается роль мотива пути как модели духовного становления героя и системы испытаний.

Ключевые слова: мотив пути, фольклоризм, суфизм, Ахмад Яссави, путь, испытание, символика, сказка, эпос.

Abstract. This article explores the motif of the road in Sa'dulla Siyoyev's novel "Ahmad Yassavi" within the framework of folkloric tradition. It analyzes the semantic, structural, and Sufi dimensions of the motif and its connections with similar motifs in folk tales, legends, and epics. The study highlights the role of the road motif as a model of spiritual development and a system of trials.

Keywords: road motif, folklorism, Sufism, Ahmad Yassavi, journey, trials, symbolism, folklore, epic.

Adabiyotshunoslikda "motiv" tushunchasi badiiy asarning semantik va strukturaviy tizimini tashkil etuvchi asosiy unsurlardan biri sifatida talqin etiladi. Motiv



asarda takrorlanib keluvchi, muayyan g‘oyaviy yukni o‘zida mujassamlashtirgan va syujet hamda obrazlar tizimi bilan uzviy bog‘langan badiiy birlikdir. Ilmiy manbalarda motiv ko‘pincha obraz, syujet va kompozitsiya bilan bir qatorda badiiy matnning mikrotuzilmasini tashkil etuvchi element sifatida izohlanadi.

Motiv tushunchasi ilk bor qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikda, xususan A. Veselovskiy¹ tomonidan ilmiy asosda ishlab chiqilgan bo‘lib, u motivni “eng kichik syujet birligi” sifatida baholaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, motiv voqealar tizimining asosiy harakatlantiruvchi unsuri hisoblanadi.

Keyinchalik V. Propp motivni ertak strukturasi doirasida funksional jihatdan o‘rganib², uni qahramon harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror komponent sifatida talqin qiladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda motiv tushunchasi yanada kengayib, u nafaqat syujet elementi, balki ramziy-semantik birlik sifatida ham qaraladi. Ya’ni motiv badiiy matnda muayyan g‘oya, kayfiyat yoki konseptni ifodalovchi takrorlanuvchi obrazlar, holatlar va detallar majmuyi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan motiv ko‘pincha arxetipik xarakter kasb etib, folklor va mifologiya bilan uzviy aloqada rivojlanadi.

Motivning muhim xususiyatlaridan biri uning takrorlanuvchanligidir. Badiiy asarda bir motiv turli shakllarda qayta-qayta namoyon bo‘lib, umumiy g‘oyaviy yo‘nalishni mustahkamlaydi. Bu esa motivni asarning ichki yaxlitligini ta’minlovchi vositaga aylantiradi. Xalq og‘zaki ijodida motivlar ko‘pincha an’anaviy va tipik xarakterga ega bo‘lib, ular ertaklar, rivoyatlar va dostonlarda barqaror shaklda uchraydi. Masalan, yo‘lga chiqish, sinovdan o‘tish, yordamchi obraz bilan uchrashish kabi motivlar folkloriy tafakkurning universal elementlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Motivning yana bir muhim jihati uning ramziyligidir. Badiiy matnda motiv ko‘pincha bevosita emas, balki ramziy ma’noda ishlatiladi. Masalan, yo‘l motivi nafaqat harakatni, balki hayot yo‘li, taqdir, ruhiy izlanish kabi keng ma’nolarni ifodalashi mumkin. Bu esa motivni semantik jihatdan ko‘p qatlamli birlikka aylantiradi.

Motiv shuningdek qahramon xarakterini ochishda ham muhim rol o‘ynaydi. Qahramonning muayyan motiv doirasidagi harakatlari uning ichki dunyosi, maqsadlari va rivojlanish bosqichlarini yoritadi.

¹ Веселовский. А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989.

² Пропп. В.Я. Морфология сказки. – Москва: Наука, 1969.



Yuqoridagi nazariy qarashlar asosida aytish mumkinki, Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romanida qo'llangan yo'l motivi ham aynan shu umumiy adabiy va folklarga xos qonuniyatlarga tayanadi. Asarda yo'l motivi qahramonning tashqi harakati bilan birga uning ichki ruhiy kamolotini ifodalovchi markaziy semantik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu motiv folklordagi an'anaviy "yo'lga chiqish" modeli bilan uzviy bog'liq bo'lib, qahramonning sinovlardan o'tishi, ustoz topishi va ma'naviy yuksalish bosqichlarini badiiy jihatdan ifodalaydi. Shu tariqa, motiv tushunchasining nazariy asoslari roman matnida konkret badiiy ifodasini topib, yo'l motivi orqali asarning g'oyaviy-badiiy mohiyati ochib berilgan.

Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romanida yo'l motivi badiiy tafakkurning markaziy semantik komponentlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu motiv asarda nafaqat syujetni tashkil etuvchi unsur, balki tasavvufiy-falsafiy mazmuni ifodalovchi ko'p qatlamli konsept sifatida shakllangan.

Yo'l – bu qahramon harakatining tashqi ko'rinishi bilan birga uning ichki ruhiy evolyutsiyasini ham ifodalovchi murakkab badiiy kategoriya hisoblanadi. Roman strukturasi yo'l motivi qahramonning shakllanish bosqichlari bilan chambarchas bog'liq. Ahmad Yassaviy obrazi orqali ifodalangan safar bu ilm izlash, ustoz topish, ruhiy poklanish va Haq yo'lga kirish jarayonlarining badiiy modeli sifatida talqin etiladi. Bu jihat o'zbek folkloridagi an'anaviy "yo'lga chiqish" motivi bilan genetik aloqada bo'lib, qahramonning o'zligini anglash jarayonini belgilaydi.

Folkloriy tafakkurda yo'l motivi qadimdan inson hayotining ramziy modeli sifatida talqin qilingan. Xalq ertaklarida qahramonning yo'lga chiqishi odatda muayyan maqsad bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon davomida u turli sinovlardan o'tadi. Masalan, sehrli ertaklarda qahramon "uch yo'l chorrahasi"ga kelib, tanlov oldida qoladi: oson yo'l, xavfli yo'l yoki ma'naviy kamolot sari olib boruvchi yo'l. Bu motiv Siyoyev romanida ham o'z aksini topib, Ahmad Yassaviyning hayotiy tanlovlari orqali ifodalanadi.

Yo'l motivining folklor ildizlari dostonlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi epik asarlarda qahramonning safarga chiqishi uning jasoratini sinovdan o'tkazuvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Adib romanida esa bu motiv epik xarakterdan ko'ra ko'proq tasavvufiy mazmun bilan boyitilgan bo'lib, qahramonning ichki dunyosi va ruhiy kamolotiga yo'naltirilgan.



Tasavvufiy tafakkurda yo‘l “tariqat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Ahmad Yassaviy obrazi orqali ifodalangan yo‘l nafsni yengish, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lidir³. Bu yerda yo‘l motivi metaforik xarakter kasb etib, insonning ichki dunyosidagi kurashlar va ruhiy izlanishlar bilan uyg‘unlashadi. Shu ma’noda, roman poetikasida yo‘l motivi botiniy semantik qatlamni shakllantiradi. Yo‘l motivining strukturaviy jihati ham e’tiborga loyiq. Qahramonning yo‘lga chiqishi, sinovlardan o‘tishi va yakunda ma’naviy mukammallikka erishishi bu jarayon V. Propp tomonidan ta’riflangan funksional model bilan uyg‘unlik kasb etadi. Ya’ni yo‘l motivi qahramonning funksional harakatlarini tizimlashtiruvchi asosiy mexanizm sifatida ishlaydi.

Roman matnida yo‘l motivi ko‘pincha ramziy obrazlar bilan boyitilgan. Yo‘l nafaqat harakat, balki qismat, taqdir va hayot yo‘lining metaforik ifodasidir. Ayrim epizodlarda yo‘l obrazining kengayishi kuzatilib, u insoniyatning umumiy ma’naviy taraqqiyotini ifodalovchi universal konseptga aylanadi. Bu esa folklorizmning badiiy matndagi faol funkcionallashuvini ko‘rsatadi.

Ertaklardagi yo‘l motivi bilan roman o‘rtasidagi aloqadorlik, ayniqsa, qahramonning sinovlardan o‘tish jarayonida yaqqol seziladi. Masalan, ertaklarda qahramon yo‘lda uchraydigan yordamchi obrazlar donishmand qariya, sehrli mavjudot yoki ustoz timsoli orqali yo‘lni topadi. Siyoyev romanida esa bu funksiyani tasavvufiy ustoz obrazi bajaradi. Bu jihat folkloriga xos strukturani badiiy qayta ishlash natijasi sifatida talqin qilinadi.

Yo‘l motivining yana bir muhim jihati uning vaqt va makon kategoriyalari bilan bog‘liqligidir. Qahramonning harakati vaqt o‘tishini bildirsa, yo‘l esa makon o‘zgarishlarni ifodalaydi. Shu orqali asarda dinamiklik hosil bo‘ladi va qahramonning evolyutsiyasi izchil tarzda yoritiladi.

Badiiy matnda yo‘l motivi ko‘pincha ichki monologlar, tasviriy vositalar va ramziy epizodlar orqali chuqurlashtiriladi. Bu esa asarning estetik qiymatini oshirib, o‘quvchini qahramonning ichki dunyosiga yaqinlashtiradi. Yo‘l bu nafaqat voqealar ketma-ketligi, balki ma’naviy izlanishlar jarayonining badiiy ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida yo‘l motivi ko‘p qatlamli badiiy tizim sifatida namoyon bo‘lib, u folkloriy an’analar,

³ Комилов. Н. Тасаввуф. – Тошкент. : Шарк, 2005. – 112 б.



tasavvufiy qarashlar va zamonaviy adabiy tafakkurning sintezini tashkil etadi. Ushbu motiv qahramon kamoloti, syujet rivoji va asarning umumiy semantik tuzilishini belgilovchi markaziy unsur sifatida funkcionallashadi. Yo‘l motivining folklor bilan uzviy bog‘liqligi esa uni milliy badiiy tafakkurning muhim komponenti sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Куронов. Д., Мамажонов.З., Шералиева. М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
2. Веселовский. А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989.
3. Пропп. В.Я. Морфология сказки. – Москва: Наука, 1969.
4. Комилов. Н. Тасаввуф. – Тошкент.: Шарқ, 2005. – 112 б.
5. Sa’dulla Siyoyev. Ahmad Yassaviy. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

